

PEDAGOGIK FAOLIYATNING KASBIY HUQUQIY ASOSLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Pedagogika ta'lim yo'nalishi 1 bosqich talabasi

Bobojonova Shahrina Farkhadovna,

Shomurodova Elnora G'ayrat qizi

Email: bobojonovashahrina@gmail.com

[Tel:953655506](tel:953655506)

Annotatsiya: mazkur maqolada pedagogik faoliyatning kasbiy-huquqiy asoslari, ularning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Pedagogik faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga solish o'qituvchining kasbiy erkinligi, mas'uliyati va ijtimoiy himoyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim muassasalari faoliyatini me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish, o'qituvchilarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi qonuniy asoslar tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, hamda boshqa me'yoriy hujjatlar talablari asosida pedagogik faoliyatning huquqiy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, kasbiy huquqiy asoslar, ta'lim tizimi, o'qituvchi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, kasbiy mas'uliyat, ta'lim to'g'risida qonun, huquqiy mexanizm, pedagogik etika.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog shaxsining kasbiy faoliyati nafaqat bilim berish, balki jamiyatning huquqiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini yosh avlod ongiga singdirishda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois pedagogik faoliyatni huquqiy asoslar bilan mustahkamlash ta'lim jarayonining barqarorligi va adolatli boshqarilishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki ta'lim siyosatini amalda ro'yobga chiqaruvchi, yoshlarni fuqarolik mas'uliyatiga o'rgatuvchi shaxs sifatida e'tirof etiladi. Pedagogik faoliyatning kasbiy-huquqiy asoslarini chuqur o'rganish o'qituvchining o'z kasbiga nisbatan ongli yondashuvini shakllantiradi, ularni mehnat munosabatlarida huquqiy himoya qiladi hamda ta'lim jarayonining qonuniylik tamoyillarini mustahkamlaydi. Shu jihatdan mazkur mavzu pedagogning huquqiy savodxonligi, kasbiy burchi va ijtimoiy mas'uliyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyat – bu shaxsning ijtimoiy va kasbiy faoliyat shakli bo'lib, u ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Mazkur faoliyatning samarali kechishi uchun uni huquqiy me'yorlar asosida yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Chunki har bir pedagogning kasbiy faoliyati davlat tomonidan belgilangan huquqiy me'yorlar, mehnat qonunchiligi hamda ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Pedagogik faoliyatning kasbiy-huquqiy asoslari, eng avvalo, o'qituvchining huquqiy maqomini, kasbiy erkinligini, ijtimoiy himoyasini va javobgarligini belgilab beradi. Bu asoslar pedagog shaxsining ta'lim jarayonidagi mavqeini mustahkamlaydi hamda uning mehnati, kasbiy burchi va axloqiy mas'uliyati o'rtasidagi muvozanatni saqlashga yordam beradi. O'qituvchi o'z faoliyatini qonuniylik, adolat, insonparvarlik, vatanparvarlik va pedagogik etikaga sodiq holda amalga oshirishi kerak. Huquqiy asoslarning mavjudligi ta'lim tizimida tartib va barqarorlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida bu yo'nalishda qabul qilingan bir qator muhim normativ huquqiy hujjatlar mavjud. Jumladan, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “O'qituvchi maqomi to'g'risida”gi Qonun, shuningdek, Davlat ta'lim standartlari, mehnat kodeksi va boshqa qarorlar pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi asosiy huquqiy manbalar sifatida xizmat qiladi. Ushbu hujjatlarda o'qituvchilarning kasbiy huquqlari, majburiyatlari, mehnat sharoitlari, ijtimoiy kafolatlari hamda ta'lim

jarayonida amal qilinadigan me'yoriy qoidalar belgilangan. Pedagogning kasbiy-huquqiy tayyorgarligi uning o'z kasbiga bo'lgan munosabatida, mas'uliyatida va o'quvchi hamda ota-onalar bilan muloqotida yaqqol namoyon bo'ladi.

Huquqiy savodxonlik o'qituvchiga nizoli vaziyatlarni qonuniy hal etish, o'zining va o'quvchilarning manfaatlarini himoya qilish, mehnat intizomini saqlash hamda o'z faoliyatini me'yoriy talablarga muvofiq olib borishga imkon yaratadi. Kasbiy-huquqiy asoslar, shuningdek, o'qituvchining jamiytdagi ijtimoiy obro'sini oshirishda ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchining huquqiy jihatdan himoyalanganligi uning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Shu bois bugungi ta'lim siyosatida pedagoglar uchun qulay huquqiy muhit yaratish, ularning mehnatini qadrlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, pedagogik faoliyatning huquqiy asoslari ta'lim muassasalarining ichki boshqaruv tizimida ham muhim o'rin tutadi. Masalan, o'qituvchilarning xizmat majburiyatlari, dars yuklamasi, attestatsiya jarayoni, mehnat ta'tili va intizomiy javobgarlik masalalari amaldagi mehnat qonunchiligi va ta'lim sohasiga oid nizomlar asosida belgilab qo'yilgan. Bu esa ta'lim jarayonining adolatli, shaffof va samarali kechishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy o'qituvchi uchun kasbiy-huquqiy bilimlar pedagogik mahoratning ajralmas qismi sanaladi. Chunki huquqiy bilimga ega pedagog o'z faoliyatini faqat o'qitish jarayonigagina qaratmay, balki o'quvchi shaxsining huquqlarini himoya qilish, insoniy qadriyatlarni targ'ib etish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish kabi mas'uliyatli vazifalarni ham ado etadi. Shu o'rinda, o'qituvchining kasbiy-huquqiy tayyorgarligini oshirish maqsadida malaka oshirish kurslarida, pedagogik institutlarda va ta'lim markazlarida huquqiy ta'limni chuqurlashtirishga e'tibor berilmoqda.

O'qituvchilar o'z huquqiy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirib borish orqali ta'lim sifatini yaxshilashga, shuningdek, yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shadilar.

Pedagogik faoliyatning kasbiy-huquqiy asoslari – bu nafaqat o'qituvchi faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlar majmui, balki butun ta'lim tizimining barqaror, adolatli va insonparvar tamoyillarga asoslangan holda faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi poydevordir. Ushbu asoslar ta'lim jarayonining har bir bosqichida – dars o'tishdan tortib, baholash, ota-onalar bilan muloqot, o'quvchini rag'batlantirish yoki intizomga chaqirishgacha – muhim yo'naltiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda pedagogik faoliyatning kasbiy-huquqiy asoslari ta'lim tizimida qonun ustuvorligini ta'minlaydi va o'qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi o'z faoliyatini huquqiy me'yorlarga tayanib olib borar ekan, ta'lim jarayonida adolat, javobgarlik va insonparvarlik tamoyillarini hayotga tatbiq etadi. Shu orqali u nafaqat bilim beruvchi, balki huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi shaxs sifatida jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Kasbiy-huquqiy asoslarning mavjudligi pedagogning o'z faoliyatini erkin, mas'uliyatli va qonuniy tarzda amalga oshirishini ta'minlaydi. Bu esa ta'lim muassasalarida barqaror boshqaruv, o'zaro hurmat va ijtimoiy ishonch muhitini yaratadi. Shu sababli, har bir pedagog huquqiy bilimini muntazam rivojlantirib borishi, o'z kasbiy faoliyatini qonuniy poydevor asosida tashkil etishi zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'qituvchi maqomi to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. — Toshkent, 2016.
4. G'ulomov S. Pedagogik faoliyat va huquqiy madaniyat. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Махмудов, Ш. К., & Мусаева, У. М. (2014). Правовое образование и воспитание в современном социально-культурном развитии общества узбекистана. The Way of Science, 50.

6. Махмудов, Ш. К. (2021). Профессионализм и формирование педагогических способности. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 45-50.
7. Kamolovich Makhmudov Shokir. "Practical forms, methods and tools of spiritual and legal education technologies suitable for citizens in the process of socialization of students." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.7 (2022): 55-61.

